

## Jinoyat Protsessida Pedagog Va Psixologning Huquqiy Maqomi: O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligi Va Xalqaro Amaliyotdagi Tendensiyalar

**Axmedova Manzura Avazjon qizi**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti doktoranti

Ishni sudga qadar yuritish — jinoyat-protsessual faoliyatning hal qiluvchi bosqichi bo‘lib, unda inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, ayniqsa voyaga yetmaganlar ishtirokidagi ishlar bo‘yicha, alohida dolzarblik kasb etadi. Bola yoshidagi shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan tergov harakatlari ruhiy va huquqiy jihatdan yetarli darajada himoyalansa, bu ularning kelgusi hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu munosabat bilan, ishni sudga qadar yuritish bosqichida pedagog va psixolog ishtirokining huquqiy maqomini aniqlash, ularning huquq va majburiyatlarini belgilash, huquqiy-tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish huquqiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu ishtirok nafaqat bolaning huquqlarini himoya qiladi, balki uning shaxsiy xavfsizligi, ruhiy barqarorligi va shaxsiy daxlsizligi uchun kafolat bo‘ladi. Bugungi kunda ushbu masala milliy qonunchilikda alohida huquqiy maqomda belgilanmagani sababli, amaliy muammolar kelib chiqmoqda.

Shuningdek, voyaga yetmagan shaxslar bilan bog‘liq jinoyat ishlarini yuritishda inson huquqlari sohasidagi asosiy tamoyillardan biri bu — bolalarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish, ularni odil sudlovning zararli ta’siridan muhofaza qilishdir. Xususan, guvoh yoki jabrlanuvchi sifatida tergovda ishtirok etayotgan voyaga yetmaganlar psixologik jarohat olish xavfiga moyil hisoblanadi. Shu sababli, ularni so‘roq qilish jarayonida pedagog va (yoki) psixolog ishtirokining ta’minlanishi nafaqat huquqiy, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega.

Jinoyat-protsessual kodeksning 121-moddasiga ko‘ra voyaga yetmagan shaxs so‘roq qonuniy vakili yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog va (yoki) psixolog yoxud jabrlanuvchining vakili ishtirokida ularning “roziligi bilan” o‘tkaziladi deyilgan. Biroq “roziligi” degan so‘z amaliyotda noto‘g‘ri ta’riflanmoqda, ya’ni bu normaning ijro etilishi har doim ham kafolatlanmagan. Aksincha, aksar hollarda bu ishtirok ta’minotsiz qolmoqda va natijada tergov jarayonlarida bolalarning huquqiy manfaatlarini poymol etilayotgan holatlar kuzatilmoqda. Shu bois, ushbu paragrafda ishni sudga qadar yuritishda pedagog va psixolog ishtirokining huquqiy maqomini har tomonlama tahlil qilishni maqsad qildik.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

- Jinoyat-protsessual qonunchilikdagi normalarning tahlili;
- Pedagog va psixologlar uchun yuridik maqom, vakolatlar va javobgarlik chegaralarini o‘rganish;
- Xalqaro huquqiy standartlar va milliy qonunchilikning uyg‘unlashuvini baholash;
- Amaliy muammolar va huquqiy bo‘shliqlarni aniqlash;
- Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish.

Mazkur paragrafda nazariy va amaliy tahlil, normativ huquqiy hujjatlar hamda huquqni qo‘llash amaliyoti asosida, ishni sudga qadar yuritishda pedagog va psixolog ishtirokining maqomini

huquqiy jihatdan aniqlashtirish maqsad qilinadi. Bu maqsad xalqaro standartlarga uyg'un tarzda inson huquqlarini kafolatlashning muhim omili hisoblanadi.

Fikrimizcha, bola har qanday sud jarayonida o'zini erkin va himoyalangan his etishi uchun barcha choralar ko'rilishi shart xisoblanadi va bu borada bolaning manfaatlari birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi hamda, ruhiy holatini himoya qilishning ustuvorligi yuzasidan bir qancha xalqaro standartlar va tajribalarda o'z aksini topgan.

121-modda bolalarning huquqlarini himoya qiluvchi me'yor sifatida qaralsa-da, amaliyotda quyidagi muammolar mavjudligini ko'rishimiz mumkin:

1. **Mutaxassislar yetishmasligi:** Pedagog va psixologlarning yetarli malakada emasligi, ularning vazifalarining aniq belgilanmaganligi.
2. **Maxsus so'roq xonalarining yo'qligi:** Viloyatlar va tumanlarda audio-video yozuv uchun jihozlangan xonalar mavjud emas.
3. **Ijro intizomi sustligi:** Qonun talablariga amal qilishda tetik nazorat mexanizmi yo'q.
4. **Psixolog va pedagog xulosalarining huquqiy qiymati aniq emas:** Ular tavsiya sifatida qaraladi, lekin tergovga ta'sir ko'rsatmaydi.

JPKning 121-moddasi O'zbekistonda bolalarning huquqiy himoyasini ta'minlashda muhim huquqiy asos hisoblanadi. Biroq amaldagi muammolar ushbu moddani xalqaro tajriba asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar so'rog'ining tartibga solingan, himoyalangan va insonparvar shakli jinoyat protsessining adolatli yuritilishiga xizmat qiladi. Shu sababli, qonunchilikka tegishli o'zgartishlar kiritish va amaliy mexanizmlarni rivojlantirish dolzarb vazifadir.

Bolalarni jinoyat-protsessual jarayonlarda himoya qilish masalasi huquqiy davlat barpo etishda ustuvor ahamiyatga ega. Xususan, voyaga yetmagan shaxslar ishtirokidagi jinoyat ishlarida pedagog va psixolog mutaxassislarning ishtiroki – adolatli tergovni ta'minlashda asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Biroq, amaliy holat bu masalada O'zbekistonda hali yetarli tizim shakllanmaganini ko'rsatmoqda. Quyidagi tahlil ushbu kamchiliklarni rasmiy ma'lumotlar, statistik ko'rsatkichlar va xalqaro tajriba asosida ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 2025 yil 15 iyulda taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlarga muvofiq, so'nggi besh yilda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan ko'rilgan jinoyat ishlari keskin o'sgan. Jumladan: 2020 yilda – 605 ta jinoyat ishi ko'rilgan; 2024 yilda – 2 412 ta ish; 2025 yilning birinchi yarmida – 1 299 ta ish. Bu shundan dalolat beradiki, o'smirlar tomonidan huquqbuzarlik holatlari ortib boryapti, ammo tergov jarayonida ularning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olish hamon tizimli emas.

O.D.Allanazarovning ta'kidlashicha yurtimizda voyaga yetmaganlar so'rog'i jarayonida pedagog va psixolog ishtirokining aniq statistikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisobotlarida to'liq va shaffof tarzda aks ettirilmagan. Bu esa, mazkur mutaxassislarning ishtiroki tizimli emasligini, hamda hisobot-tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi deb aytgan bo'lib, ushbu fikrga qo'shilgan holda mutaxassissiz o'tkazilgan tergovning huquqiy xatarlari ya'ni, pedagog va psixolog ishtirokisiz tergov jarayonlari bir necha jiddiy huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi to'g'risida quyidagilarni taqdim etamiz:

- 1) rotsessual xolislik buziladi: bola yoshligi sababli so'roqda noto'g'ri bayonot berishi mumkin va buni mutaxassislarsiz aniqlashning imkoni bo'lmaydi.
- 2) Bolaga nisbatan tazyiq holatlari aniqlanmaydi: psixologik tahlilsiz so'roq jarayonlari noqonuniy bosim va qiynoqlarning yashirin holda amalga oshirish xavfini kuchaytiradi.
- 3) Bola shaxsiyati va ruhiy holati inobatga olinmaydi, bu esa jazo turini belgilashda beadolat qarorlar chiqarilishiga olib keladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual amaliyotida voyaga yetmagan shaxslar ishtirokidagi tergov harakatlarini o'tkazishda pedagog va psixologlar ishtirokini ta'minlash instituti samarasiz holda faoliyat yuritmoqda. Amalda, jinoyat ishi doirasida bolaning sub'ektiv holatini aniqlash, uning psixoemotsional holatini baholash, yoshiga mos ravishda so'roq o'tkazish kabi jarayonlarda pedagog va psixologlar ishtiroki nazarida majburiy hisoblansa-da, amalda e'tibordan chetda qolmoqda. Jumladan, ilmiy va amaliyotdagi kuzatuvlar va albatta, tergovchilar bilan olib borilgan suxbat natijalariga ko'ra, tergov harakatlarida bola bilan ishlash jarayonida asosan faqatgina uning qonuniy vakili ishtirok etadi, pedagog va psixologlarni chaqirish amaliyoti esa faqat ayrim holatlar bilan cheklangan. Bu esa, JPKda belgilangan insonparvarlik va bola manfaatlarini prinsiplariga zid holat hisoblanadi.

Qolaversa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va tergovchilar o'rtasida "mutaxassislar faqat og'ir jinoyatlar bo'yicha chaqiriladi" degan noto'g'ri amaliyot shakllangan. Bu esa bolaning huquqiy himoyasini omadga bog'lab qo'yadi. Bolalarning psixikasi barqaror emasligi, ular so'roq paytida o'z so'zlarining ma'nosi va oqibatlarini to'liq anglamayotgani sababli, ayrim hollarda "iqrorlik" yolg'onga asoslangan bo'lishi mumkin.

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (1989), Pekin qoidalari (1990) va Yevropa Ittifoqining 2016/800 Direktivasi voyaga yetmaganlarga nisbatan tergov jarayonlarida psixologik himoya mexanizmlarini joriy etishni tavsiya etadi. 2016/800 Direktivada bolaning huquqiy va psixologik holatiga qarab so'roq jarayonida psixologning ishtirokini ta'minlash talab qilinadi. Fransiyada, masalan, 13 yoshdan kichik har qanday shaxs so'roq qilinishida bolalar psixologiyasi bo'yicha sertifikatlangan mutaxassisning ishtirokida so'roq o'tkazilishi majburiy hisoblanadi.

Germaniya tajribasida esa "Vernehmungsbeistand" — so'roq maslahatchisi instituti joriy etilgan bo'lib, psixologik himoyani amaliy ta'minlash uchun davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Bu institut bolaning huquqlarini nafaqat huquqiy, balki shaxsiy xavfsizlik nuqtai nazaridan ham himoya qiladi.

Fikrimizcha, yuqorida bayon etilgan holatlar asosida Jinoyat-protsessual kodeksining 121-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

#### *Birinchi bandi*

*"Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilish videokuzatuv, shuningdek audio- va video qayd etish tizimlari bilan jihozlangan maxsus tayyorlangan xonalarda, qonuniy vakili, pedagog va (yoki) psixolog yoxud jabrlanuvchining vakili ishtirokida o'tkazilishi shart. Ko'rsatilgan shaxslar so'roq qiluvchining ruxiy xolatidan kelib chiqib guvoh yoki jabrlanuvchiga savollar berishlari mumkin"*

#### *Oltinchi bandi*

Jinsiy erkinlikka qarshi, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar savdosiga oid jinoyat ishlari bo'yicha voyaga yetmagan guvohni yoki jabrlanuvchini so'roq qilish, shuningdek boshqa holatlarda so'roq qilish, *stenografiya, videokuzatuv, shuningdek audio- va video qayd etish tizimlari, maxsus tayyorlangan, bolalar uchun qulay muhitda qonuniy vakil, pedagog va (yoki) psixolog ishtirokida o'tkazilishi majburiy hisoblanadi.*

Ushbu moddada keltirib o'tilgan voyaga yetmaganlar so'rog'i "... agar buni odil sudlovning yoki voyaga yetmagan shaxsning manfaatlarini talab etsa..." deb shartlashtirilgan. Bu holat ixtiyoriy (dispozitiv) tusda bo'lib, odil sudlovga va voyaga yetmagan shaxsning manfaatlariga qarab amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, ushbu normaning takomillashtirish lozim sanaladi. Sababi, "Manfaatlarini talab etsa" degan nomuayyanlik, huquqni ijro etishda turlicha talqin qilinishi mumkin hamda jinsiy jinoyatlar – eng og'ir jinoyatlar turkumiga kiradi, ular bo'yicha protsessual himoya choralari imperativ tarzda amalga oshirilishi lozim. Qolaversa, JPK ushbu himoya mexanizmlarini faqat imkoniyat sifatida emas, majburiy huquqiy talab sifatida belgilashi zarurdir.

Voyaga yetmagan shaxslar ishtirokidagi jinoyat-protsessual jarayonlar huquqiy davlat tamoyillariga asoslangan holda, insonparvar va maxsus yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, gumon qilinuvchi va

ayblanuvchi maqomiga ega bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarni so'roq qilish – jinoyat protsessida eng murakkab va ta'sirchan bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda bolaning ruhiy holati, yosh xususiyatlari va huquqiy bilimlarining yetarli darajada emasligi uni noxolis muhitda faol yoki passiv ta'sirga uchratishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy protsessual normalarda bunday so'roqlarni mutaxassislar – pedagog va psixologlar ishtirokida amalga oshirish zarurati xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 554-moddasi voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchilarni so'roq qilishda pedagog va psixologni jalb etish imkoniyatini nazarda tutadi. Ammo amaldagi tahrirda ularning ishtiroki dispozitiv xarakterga ega bo'lib, bu norma tergov organining xohishi yoki boshqa shaxslar iltimosiga bog'langan holda amalga oshiriladi. Bu esa bola huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qilmasligi, balki formal yuridik yondashuvga olib kelishi mumkin.

Jinoyat protsessida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan protsessual harakatlar, ayniqsa so'roq qilish jarayoni, ularning shaxsiy va ruhiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining (JPK) 554-moddasida bunday so'roqlar muayyan shartlar asosida o'tkazilishi belgilangan. Ushbu modda voyaga yetmagan shaxslarning so'roq qilinganda pedagog, psixolog yoki boshqa mutaxassis ishtirokini nazarda tutadi, ammo ushbu ishtirok **ixtiyoriy** xarakterda belgilangan.

Bu qonuniy normaning umumiy va noaniq bayoni amaliyotda bolalarning huquqlariga rioya etilmasligiga, ayniqsa tergov organlarining sub'ektiv qarorlariga bog'liq holatlar yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

JPK 554-moddasida: “Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini yoki ayblanuvchini so'roq qilishda surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra yoxud voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi himoyachisining, qonuniy vakilining iltimosiga binoan pedagog va (yoki) psixolog ishtirok etishi mumkin.”, — deb qayd etilgan. Bu yerda “mumkin” (rus tilida “mojet byt provedyon”) so'zining ishlatilishi huquqshunoslarda jiddiy tanqidlariga sabab bo'lmoqda. Imperativ xarakterga ega bo'lmagan bunday normalar, yuridik jihatdan kafolatlangan huquqiy himoyani ta'minlamaydi. “Mumkin” degani — tergovchi istasa, ishtirokchi chaqiriladi; istamasa — yo'q. Bu huquqni himoya qilishda og'ir bo'shliqni keltirib chiqaradi.

Indoneziya mamuriy xuquqshunoslari shuni takidlaydiki, “Qonunlarda qachonki normalar aniq bo'lmasa (masalan: “ruxsat berilishi mumki”, “zarur bo'lsa” degan iboralar bo'lsa), bu holatda davlat xizmatchilari yoki hokimiyat vakillari o'z ixtiyorlari bilan qaror qabul qilishadi”.

Yuqoridagi jumladan ko'rinib turibdiki, qonunda aniq yozilmagan joylarda xokimiyatdagilar o'zicha qaror chiqara oladi. Bu esa huquqiy noaniqlikka sabab bo'ladi va natijada, fuqorolar uchun bu tengsizlik va adolatsizlik keltirib chiqaradi.

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (CRC, 1989) 40-moddasida esa, har bir bola o'zining yoshi va ruhiy holatiga mos tarzda huquqiy va pedagogik himoya olishi shart ekani qayd etilgan. CRCni O'zbekiston 1994 yilda ratifikatsiya qilgan, demak, uning talablari milliy qonunchilikda to'la aks etishi shart.

Shuningdek, Pekin qoidalari (1990) 10.3-bandda aniq belgilangan “Bolalar bilan bo'lgan har qanday protsessual harakatda psixologik va pedagogik yordam kafolatlanishi shart”.

Yevropa Ittifoqining 2016/800 Direktivasida esa voyaga yetmaganlarning so'rog'i faqat psixolog (yoki bolalar bilan ishlash bo'yicha tayyorlangan shaxs) ishtirokida o'tkazilishi kerakligi belgilangan.

Fikrimizcha, JPK 554-moddasidagi ixtiyoriy norma Konstitutsiya va xalqaro huquqiy standartlar bilan ziddir.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotini o'rganar ekanmiz, ushbu davlatlar qonunchiligining negizida asosan bola huquqlarini amaliy himoya qilish, ya'ni ularning kelgusi xayoti davomida travmatik xotira qolmasigini asosiy maqsad bo'lib qo'yiladi.

Fransiya JPKning 706-52 moddasiga ko'ra, **13 yoshdan kichik har bir shaxs** faqat psixolog ishtirokida so'roq qilinishi mumkin. Bu norma "qonunni buzgan shaxsning xavfsizligi"ni emas, "shu yoshdagi bolaning shaxsiy himoyasini" asosiy maqsad qiladi.

Germaniya "Vernehmungsbeistand" — so'roq maslahatchisi instituti joriy qilingan. Bunda davlat tomonidan tayinlangan pedagog-psixolog bola huquqlarini amaliy himoya qiladi.

Polsha bolalar so'rog'i faqat maxsus tayyorlangan "jinoiy-psixologik xavfsiz xona"da, kameralar va audiotekshiruv ishtirokida o'tkaziladi. Bolaning hayoti davomida travmatik xotira qolmasligi asosiy maqsad qilingan.

Fikrimizcha, bu misollar O'zbekiston qonunchiligidagi "mumkin" normasining qay darajada zaifligini ko'rsatadi.

Jinoyat protsessida, ayniqsa voyaga yetmaganlar ishtirokidagi ishlarda, pedagog va psixologning ishtiroki qanchalik muhim ekanligini ilmiy hamda amaliy jihatdan isbotlash mumkin. Ammo bu ishtirokning huquqiy maqomi – ya'ni ular **mutaxassis**mi, **ekspert**mi yoki faqat **yordamchi shaxs** sifatida baholanishi kerakmi – hozirda O'zbekiston qonunchiligida aniq belgilanmagan.

Jinoyat-protsessual kodeksda "mutaxassis", "ekspert", "ishonchli shaxs", "guvoh" kabi protsessual shaxslarning huquqiy maqomi aniqlangan bo'lsa-da, **pedagog va psixolog tergov jarayonida qaysi maqomda ishtirok etayotgani yuzasidan mutlaq aniqlik mavjud emas**. Ularning huquq va majburiyatlari, javobgarlik darajasi, fikrlarining yuridik kuchga egaligi kabi masalalar huquqiy jihatdan ochiq qolgan.

Natijada tergovchilar har holatda turlicha yondashmoqda: ayrim holatlarda psixologning xulosasi rasmiy "ekspert xulosasi" sifatida qabul qilinsa, boshqa holatda u faqat "ishonchli kuzatuvchi" sifatida qaralmoqda. Bu nafaqat amaliyotda ixtilof keltirib chiqaradi, balki bola huquqlarini himoya qilishning tizimlilikini ham ta'minlamaydi.

"Pedagog (psixolog) voyaga yetmagan so'roq qilinayotganda ishtirok yetadi va bu ishtirok bolaning huquqlarini himoya qilish uchun muhimdir. Ular protokolga to'g'ri yozilganlikni nazorat qiladi. Ammo ularga alohida yuridik maqom berilmasa, ularning ta'siri cheklangan bo'ladi".

Shu bois, pedagog va psixologning huquqiy maqomini aniq belgilash – faqat texnik masala emas, balki bola huquqlarini himoya qilishdagi markaziy tizimiy halqa hisoblanadi.

Bugungi kunda Pedagog va psixologning huquqiy maqomi aniq belgilanmagani, tergov va sud amaliyotida qator jiddiy muammolar keltirib chiqarmoqda. Ularning ishtiroki bo'yicha turlicha yondashuvlar, ayrim hollarda jinoyat ishining natijasiga ham ta'sir qilmoqda.

Jinoyat ishlari bo'yicha 2020–2023 yillar oralig'ida olib borilgan sud amaliyoti tahlillariga ko'ra, voyaga yetmagan ishtirokidagi ishlarning 64%ida pedagog va psixolog ishtirok etgan. Biroq, **ularning qaydlari protokolda mustahkam huquqiy kuchga ega hujjat sifatida emas**, faqat "shu yerda bo'lgan", "bolani tinchlantirdi", "muammo ko'rinmadi" kabi jumla bilan qayd etilgan. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy baholashlari va xulosalari jarayonda inobatga olinmasligini anglatadi.

Agar pedagog bolaning so'roq paytida tushunmasligi, ruhiy iztirobi yoki qobiliyatsizligini qayd etsa-da, u rasmiy xulosa sifatida baholanmasa, bu axborot hech qanday huquqiy ahamiyat kasb etmaydi. Shu bois, ayrim advokatlar bunday ishtirokni "faqat rasmiyat" deb hisoblashadi.

Pedagog va psixolog, agar so'roq paytida xato xulosa bersa yoki ayblovchi organ foydasiga og'ishgan bo'lsa, ularning bu harakati qanday huquqiy oqibatga olib kelishi haqida hech qanday normalar yo'q. Masalan, ekspert noto'g'ri xulosa bersa, JPK va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda unga nisbatan sanksiyalar bor. Ammo pedagog psixolog noto'g'ri ma'lumot bersa, **ularni javobgarlikka tortish mexanizmi yo'q**, chunki ular "protsessual shaxs" emas.

Rivojlangan mamlakatlar amadiyoti taxliliga ko'ra, Fransiyada Psixolog – jarayonning teng huquqli ishtirokchisi sanaladi. Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksida (Code de procédure pénale, art. 706-52) voyaga yetmaganlar bilan bog'liq har qanday tergov jarayonida pedagog yoki psixolog ishtirokini **majburiy** sifatida belgilaydi. Ular hech qachon faqat kuzatuvchi emas, balki tergov organiga xulosa taqdim etuvchi mutaxassis sifatida qatnashadi.

Ularning vazifalari qonun bilan aniq belgilangan: bolaning so'roq jarayonidagi hissiy holatini baholash, so'roq savollariga javob berish qobiliyatini aniqlash, jarayonni to'xtatish yoki davom ettirish haqida tergovchiga taklif kiritish.

Bundan tashqari, agar psixolog so'roq jarayonini bola uchun travmatik deb hisoblasa, u jarayonni darhol to'xtatishni talab qilish huquqiga ega. Fransiyada bu mutaxassislarga nisbatan hech qachon "ishonchli shaxs" yoki "yordamchi shaxs" maqomi berilmaydi – **ular mustaqil va alohida protsessual shaxs hisoblanadi.**

Germaniya Jinoyat-protsessual qonunida (Strafprozessordnung, §163) voyaga yetmaganlarni so'roq qilish uchun maxsus institut – **Vernehmungsbeistand** (so'roq maslahatchisi) joriy etilgan. Bu shaxs, odatda, bolalar psixologi yoki pedagog bo'lib, sud yoki prokuror tomonidan rasman tayinlanadi. Uning faoliyati tergov organidan mustaqil bo'ladi.

Vernehmungsbeistand ishtirokisiz o'tkazilgan so'roq jarayoni Germaniyada **noqonuniy** deb topilishi va ish jarayonidan chiqarilishi mumkin. Bu nafaqat bola huquqlarini himoya qilish, balki protsessual aniqlikni ta'minlashning ham muhim kafolati hisoblanadi.

Germaniyada ushbu shaxslar xulosa bersa, u **rasmiy yuridik kuchga ega**, ya'ni ularning hujjatlari ekspert xulosasi kabi baholanadi. Bunda ular JPKda alohida maqomda – "Beteiligte im Verfahren" (jarayon ishtirokchisi) sifatida qayd etiladi.

Polshada bolalar so'rog'i faqat "jinoyat-psixologik xavfsiz xona" (blue room) deb ataluvchi maxsus xonalarda amalga oshiriladi. 2018 yilda qabul qilingan qonunga ko'ra, bu jarayonda kamida ikki mutaxassis – bolalar psixologi va tayyorlangan tergovchi ishtirok etadi. Ular alohida tayyorgarlik kurslarini o'tadi va moliyaviy tomondan davlat tomonidan ta'minlanadi.

Mutaxassisning fikri xatlovda rasmiy hujjat sifatida qabul qilinadi, videoyazuv hamda psixologik kuzatuv xatlovi ishga ilova qilinadi. Bu xulosa, ayni damda, sudda **dalil sifatida** qabul qilinadi.

Yuqoridagi taxlillardan kelib chiqib O'zbekiston qonunchiligida huquqiy maqomni aniqlash va muammoni tizimli yondashuvda hal etish zarur deb topdik. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida pedagog va psixolog ishtirokining huquqiy maqomini aniqlash majburiy, bo'lib, bu nafaqat huquqiy aniqlikni ta'minlaydi, balki sud-tergov jarayonida bolalarning huquq va manfaatlarini real himoya qilish kafolati hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. United Nations. (1989). Convention on the Rights of the Child. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child>, Council of Europe. (2010). Guidelines of the Committee of Ministers on child-friendly justice. <https://rm.coe.int/16804b2cf3>
2. Олий суд томонидан берилган статистик хисобот (16.07.2025)
3. О.Д.Алланазаров: "Вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноятларни тергов қилиш методикасини такомиллаштириш"
4. 20.11.1989. Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция
5. Пекинские правила - Департамент пробации КР
6. Directive - 2016/800 - EN - EUR-Lex
7. Code de procédure pénale, art. 706-52].
8. OSCE. (2020). Legal Aid in Criminal Justice Systems. Retrieved from <https://www.osce.org>

9. The Scope of Discretion in Government Administration Law: Constitutional or Unconstitutional? – ResearchGate, 2018. <https://www.researchgate.net/publication/324475299>
10. 20.11.1989. Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция
11. Участие педагога и психолога при допросе несовершеннолетнего”Sayt: e-koncept.ru
12. Vernehmungsbeistand: Bundesministerium der Justiz (Germany). (2022). Retrieved from <https://www.bmj.de>